

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUHLARI

Xudayberdiyeva Dilafruz Abidovna

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti dotsenti,

Matrasulova Mohinur Ulug'bek qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15340199>

Sharq sivilizatsiyasining dastlabki bosqichlaridanoq yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularni kasb-hunarga o'rgatish orqali bilimlarning biror sohasiga yo'naltirish qadimiy an'analardan hisoblanadi. Ayniqsa, hunarmand va kosiblar, me'mor va naqqoshlar, dehqon va chorvadorlar, o'z farzandlari yoki shogirdlariga ta'lim va tarbiya berishga juda katta axamiyat berganlar. Bundan ko'rinadiki, ta'lim va tarbiya masalalari hozirgi kun uchun yangilik bo'lmay, balki azaliy muammo sifatida o'rganib kelinmoqda. Jumladan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Jomiy, Axmad Donish, Davoniy kabi o'z davrining yetuk namoyandalari tomonidan yozilgan asarlarda ushbu masalalar atroflicha talqin qilingan. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ta'lim so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini ta'kidlaydi. Bu mulohazalardan ko'rinib turibdiki, ta'lim va tarbiya insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan.



-Ta'lim degan so'z – xalqlar o'rtasida nazariy fazilatlarini birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rganish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug'

Tarxon Forobiy


Farobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdir, aks holda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda podshohlar ham o'zlari harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiy bo'lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat ulug' tug'ma fazilat va ulug' fazilati odat - malaka bo'lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo'ladi, bunday odamlar cheksiz, juda kuchli tabiat va irodaga egadirlar. Bu ikki yo'l bilan, ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so'z xalqlar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir.

Ta'lim so'z va o'rganish yo'li bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rgatishdir. Ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatlariga kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa,

demak, ular kasb-hunarining chinakam oshig'i bo'ladilar. Nazariy bilimlarni yo ustozlar yoki hikmatlar o'rgatadi. Yoshlar jaxd va gayratga ega bo'lganlari va shu narsalarni o'z vujudlarida singdirganlaridan so'ng nazariy bilimlarning hammasida mantiqiy fikrlash yo'lini ishlatishga odatlanadilar. Shu tartibda bolalarga o'rgatish yo'li bilan ular kamolga yetguncha ana shu fazilatlar aniqlanadi va tarbiya qilinadi. Farobiyning fikricha, baxtning turli darajalarining bir-biridan afzalligi uning alomatlariga qarab aniqlanadi.

Masalan, bir xattot o'z hunarining ko'pgina sirlarini bilishi, keng bilim egasi bo'lishi mumkin. Agar u yomon bo'lsa tabiatdan badbaxtligi tufayli yozuvi xam tobora xunuklashib boraveradi, uning hunarlari san'ati tobora orqaga ketaveradi.

Abu Rayxon Beruniy bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o'rgatish jarayonini dastlabki ta'lim va tarbiya berishga tenglashtiradi. Zero, qadimdan har bir yetuk inson shohmi yoki oddiy fuqaromi hunarning bir yoki bir necha turini bilishi zarur sanalgan.



Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash zarurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi va birga o'qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi bo'lgan. Bolani maktabda jamoa bo'lib o'qishini foydasi quyidagicha ifodalangan:


Agar o'quvchi birga o'qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslikuchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi.

Bularning hammasi o'qishning yaxshilanishiga yordam beradi.

O'zaro suhbatda o'uvchilar bir-biriga kitobdan o'qib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar.

Bolalar birga to'planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar.


Bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi¹:



1-rasm. Abu Ali ibn Sinoning ta'lim berishga oid tavsiyalari².

Shunigdek, **Yusuf Xos Hojib** ham jahonning ulug' adiblari bilan bir qatorda turadigan, jahondagi ta'lim va tarbiya ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ijodkordir. Uning "Qutadg'u bilig" asari didaktik ruhdagi, ta'lim-tarbiya, odob-axloq mavzusiga bag'ishlangan asar.

Asrlar osha tarbiyaviy ahamiyati yuksala borayotgan "Qutadg'u bilig" dan komillik shartlari, umrni behuda



o'tkazmaslik, doimo adolat va aql bilan ish ko'rish lozimligini o'rganish mumkin. Asar orqali kitobxonda hayotda tatbiq qilish mumkin bo'lgan ko'pgina foydali tushunchalar bilan tanishish imkoniyati paydo bo'ladi. Xususan, rahbar ma'naviyatini shakllantirish va takomillashtirish, shaxs tarbiyasi, uning jamiyatda tutgan o'rni, turli mansab egalarining ma'naviy-axloqiy mezonlari bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan mavzulardir. Xulosa qilib aytganda, baxt-saodat yo'llaydigan bilimlar haqida saboq beruvchi bu bebaho asar kitobxonni yuksak ma'naviyat egasi qilib tarbiyalaydi³.

¹Norimbetov T.B. Tasavvufda komil inson masalasi. (Milliy va ma'naviy qadryatlarning yuksalishida ayollarning o'rni) Toshkent; TIU ning maqolalar to'plami. 2016-yil. 312- bet.

² Matnga muvofiq muallif tomonidan ishlab chiqildi.

³ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.

Kaykovus o'z asarida tarbiyaga alohida e'tiborni qaratar ekan, tarbiyani inson aqlini va shaxsiy hayotni shakllantiruvchi omillardan deb biladi. Bunda inson ruhiyatini yuksaklarga ko'tarishni ilgari suradi, salbiy illatlarning sabablarini izlaydi. Xususan, insonni tarbiyalashda hayotda tarbiyaning ta'sir o'rni yuqori ekanligini e'tirof etishni burch deb biladi.

Uning fikricha, yoshlarga tarbiya berishdan



maqsad ularni nafaqat bugun, balki kelajak uchun ham yaroqli shaxslar qilib yetishtirishdir. Shuning uchun muallif asarda yoshlarning xulq-atvoriga, fe'liga alohida e'tibor beradi. Shuningdek do'stu dushmanga ham qanday munosabatda bo'lish kabi masalalarni ham yoritgan. Bola boshidan deyilganidek, farzandni tug'ilgandan tarbiyalash, odob-axloq me'yorlarini o'rgatish, ilmu hunarli qilish, bolaning mehnatga bo'lgan ko'nikmasini hosil qilish zarurligini, aks holda "kechikkan" tarbiyaning hech bir ta'siri bo'lmay, zarur samarani bermasligini aytib o'tgan. "Qobusnoma"da yoshlikda bor kuch-quvvatni bilim olish, kasb-hunar o'rganishga sarflash ayni muddao ekanligi ta'kidlangan⁴.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ta'kidlash o'rinliki, davlatimiz rahbari "O'qituvchi va murabbiylar" kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Aynan, shuning uchun ham, prezident: *"Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi"*⁵, –deb ta'kidlaganlarida "Uchinchi Renessans poydevori"ni ta'lim islohotlarida ko'rgan edi desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Boshlang'ich maktab o'quvchisining umumiy ta'lim jarayonidagi eng muhim bosqichdir. To'rt yil ichida u nafaqat fan fanlarining dasturiy materialini o'zlashtirishi, balki qanday o'rganishni – "professional talaba" bo'lishni ham o'rganishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining mas'uliyati doimo eksklyuziv bo'lgan. Boshlang'ich maktabda olingan ta'lim keyingi ta'lim uchun asos, poydevor bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim boshlang'ich maktabning sifat jihatidan yangi shaxsga yo'naltirilgan rivojlanish modelini belgilaydi, u quyidagi asosiy maqsadlarga erishish uchun mo'ljallangan: o'quvchi shaxsini rivojlantirish, uning ijodiy qobiliyatlari, o'qishga qiziqish, o'rganishga intilish va qobiliyatni shakllantirish; ma'naviy-axloqiy va estetik tarbiya; turli tadbirlarni amalga oshirishda bilim, ko'nikma, tajriba tizimini o'zlashtirish; bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash; bolaning individualligini saqlash va qo'llab-quvvatlash.

⁴ Badalboyeva M. "Qobusnoma" asarida yoshlar tarbiyasi. <https://uzhurriyat.uz/2017/09/07/qobusnoma-asarida-yoshlar-tarbiyasi/>.

⁵ Prezident Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020.

Demak, pedagog-kadr tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining oldiga boshlang'ich ta'limni qanday tashkil etish lozimligiga qo'yilgan talablarni hisobga olgan holda bo'lajak pedagoglarni tayyorlash vazifasi qo'yilmog'i lozim.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrda farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Kontseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda ko'plab yangi oliy ta'lim muassasalari, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 100 dan oshdi.

Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – **“Ta'lim to'g'risida”**gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Shuningdek, qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi global o'zgarishlarga duch kelmoqda. Talabalarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar ham berilishi kerak. Bu esa bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun pedagogik metodlarning takomillashtirilishi,

zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi, amaliyot va tajriba almashish jarayonlari muhim ahamiyatga ega.



2-rasm. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish usullari⁶.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi. Bugungi kunda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llash juda muhimdir. Interaktiv ta'lim platformalari, raqamli vositalar va virtual resurslar orqali talabalarga ko'proq imkoniyatlar yaratish mumkin. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida o'quvchilarga masofaviy ta'limni, onlayn platformalarni, vebinarlarni va simulyatsiyalarni taklif qilish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Virtual laboratoriyalar, video darsliklar va o'quv dasturlari o'quvchilarga mustaqil ishlash va o'rganish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, onlayn testlash va baholash tizimlari o'quv jarayonining samaradorligini o'lchashda yordam beradi.

Pedagogik metodlar. Ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish uchun pedagogik metodlarni tanlashda talabalarining ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Bu borada quyidagi metodlar qo'llanilishi mumkin:

❖ Muammoli o'qitish (Problem-based learning): Talabalar real dunyo muammolarini yechish jarayonida bilim olishadi. Bu metod faqat nazariy bilimlarni emas, balki talabalar o'rtasida muloqot, qaror qabul qilish va hamkorlikni rivojlantiradi.

❖ Loyihalash asosida o'qitish (Project-based learning): Talabalar o'zlarining loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali amaliy bilimlarni o'rganadilar. Bu metod ularga mustaqil ishlashni, analitik fikrlashni va guruhda ishlashni o'rgatadi.

❖ Kooperativ o'qitish (Cooperative learning): Jamoa ishiga asoslangan metod yordamida talabalar bir-biridan o'rganadilar va bilimlarni birgalikda ishlab chiqadilar. Bu metod talabalarda bir-biriga nisbatan hurmat va ishonchni oshiradi.

⁶ Matnga muvofiq muallif tomonidan ishlab chiqildi.

❖ **Interaktiv metodlar:** Diskussiyalar, brainstorming (bosh qotirish), o'yinqaroq o'quv jarayonlari va talabalarning faol ishtiroki talab etiladigan metodlar talabalarning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi va ularga yangi yondashuvlarni kashf etishga yordam beradi.

Amaliyot va tajriba almashish. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda juda muhimdir. Talabalar o'z sohalarida amaliyot o'tar ekan, real dunyo bilan tanishadilar va o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Amaliyot o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini sinovdan o'tkazishga, yangi usullarni o'rganishga va kasbiy malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Universitetlararo hamkorliklar, o'quvchilarning ishga joylashishini yengillashtirish kabi omillar ham amaliyotning samaradorligini oshiradi.

Shaxsiy yondashuv. Har bir talabaga individual yondashuv ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning asosiy omillaridan biridir. Talabalarning o'rganish usullarini aniqlash, ularning o'qishdagi qiziqishlarini hisobga olish va shunga ko'ra o'qitish metodlarini tanlash kerak. Shaxsiy yondashuv orqali talabalar o'zlarining qobiliyatlarini aniqlashlarish, rivojlantirishlari va kamchiliklarini tuzatishlari mumkin. Individual maslahatlar, mentorlik tizimlari va qiziqarli o'quv dasturlari talabalarni rag'batlantiradi va motivatsiya beradi.

Baholash va tahlil qilish metodlari. Ta'lim jarayonini samarali boshqarish uchun uni doimiy ravishda baholash va tahlil qilish zarur. Talabalar faoliyatini kuzatish, natijalarni tahlil qilish va baholash jarayonlari ta'limning sifatini oshirishga yordam beradi. Baholash jarayonida summativ va formativ baholash usullarini qo'llash mumkin. Formativ baholash jarayonida o'quvchilarning qobiliyatlari va bilim darajasi doimiy ravishda tekshiriladi, summativ baholash esa yakuniy natijalarni ko'rsatadi. Bu yondashuvlar ta'lim jarayonidagi nuqsonlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga imkon beradi.

Psixologik qo'llab-quvvatlash. Bo'lajak pedagoglarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarini oshirish uchun psixologik qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Talabalarga stressini boshqarish, o'z-o'zini baholash va professional o'sishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha psixologik treninglar tashkil etish zarur. Shuningdek, talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va ularning muvaffaqiyatlarga erishishlarini rag'batlantirish uchun ijobiy psixologik atmosfera yaratish lozim.

Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha doimiy kurslar va treninglar tashkil etish kerak. Bu nafaqat talabalarning o'z bilimlarini yangilashlariga yordam beradi, balki zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni qo'llashda ularga qo'llab-quvvatlash beradi. Doimiy malaka oshirish o'qituvchilarga o'z kasbiy faoliyatlarini yuqori darajada amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasida amalga aoshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalaridagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

References:

Используемая литература:
Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев, А. Т. Инновацион педагогика: назария ва амалий ёндашувлар. Т.: “Фан” нашриёти, 2019.
2. Асадова, Н. Р., ва Юлдошев, М. А. Олий таълим тизимида сифатли таълимни ташкил этиш усуллари. Т.: “Ўқитувчи нашриёти”, 2021.
3. Badalboyeva M. “Qobusnoma” asarida yoshlar tarbiyasi. <https://uzhurriyat.uz/2017/09/07/qobusnoma-asarida-yoshlar-tarbiyasi/>.
4. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. White Plains, NY: Pearson Education, 2007.
5. Ergashev, Sh. E.. Ta’limda zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
6. Khudayberdiyeva D., Raupova D. Consistency of reforms in education //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 11. – С. 1671-1680.
7. Khudayberdiyeva D., Xamroyev J.A. Ta’lim turlari va ularning amalga oshirilish mexanizmlari //Germany" modern scientific research: achievements, innovations and development prospects. – 2023. – T. 9. – №. 1.
8. Khudayberdiyeva D., Xamroyev J.A. Ta’lim xizmatlarini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi //Russian" инновационные подходы в современной науке. – 2023. – T. 9. – №. 1.
9. Norimbetov T.B. Tasavvufda komil inson masalasi. (Milliy va ma’naviy qadryatlarning yuksalishida ayollarning o’rni) Toshkent: TIU ning maqolalar to’plami. 2016-yil. 312- bet.
10. Науменко, Е. В. Методика обучения в высших учебных заведениях. М.: “Юрайт”, 2018.
11. Қурбонов, Ж. Т.. Олий таълимда инновацион технологияларни қўллаш. Т.: “Шарқ”, 2022.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 30 июндаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-86-сонли фармони.
13. Prezident Sh.Mirziyoyevning “O’qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag’ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020.
14. Yusuf Xos Hojib. Qutadg’u bilig. – T.: Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
15. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. Paris: UNESCO Publishing, 2020.